


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI



IQTISODIYOT FAKULTETI
“YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR BIZNES” KAFEDRASI
IKKINCHI OLIY TA'LIMGA KIRISH IMTIHON
DASTURI VA BAHOLASH MEZONLARI
“Mutaxassislik” fani

60410200 – Buxgalteriya hisobi

Namangan – 2025 yil

Namangan davlat universiteti Kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullagan. 2025-yil 26-iyundagi 13-sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar:

B.Urinov

Namangan davlat universteti Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasi mudiri, PhD

K.Sirojiddinov

Namangan davlat universteti Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasi dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchilar:

O.Aripov

Namangan muhandislik-qurilish instituti Iqtisodiyot kafedrasi mudiri, iqtisod fanlari doktori, professor.

D.Baymirzayev

Namangan davlat universteti Menejment kafedrasi mudiri, iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsent.

NAMANGAN 2025

KIRISH

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va chuqurlashtirish sharoitida turli mulkchilikka asoslangan tashkiliy-iqtisodiy jihatdan bir-biridan farq qiluvchi ko‘plab xo‘jalik yurituvchi subektlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratildi. Shu munosabat bilan xo‘jalik yurituvchi subektlarda buxgalteriya hisobning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi va uning ustidan nazoratning samarali mexanizmini ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Xususan, buxgalteriya hisobining ahamiyati sifatida xo‘jalik yurituvchi subektlarda hisob tizimining naqadar to‘g‘ri yuritilishi, xo‘jalikning iqtisodiy moliyaviy faoliyatini o‘rganish va uning holatiga xolisona baho berish, shuningdek iqtisodiy ko‘rsatkichlarning samaradorligini aniqlash hamda nazoratini o‘rganish bugungi kunda talaba yoshlarga muhim dastur vazifasini o‘taydi. Iqtisodiyotni chuqurlashtirish jarayonida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning iqtisodiy faoliyatini makro va mikro darajada tahlil qilib, kelgusida ishlab chiqarish (ish va xizmat) ning hajmini bashoratlash, shuningdek, samaradorlikka erishish uchun muhim bo‘lgan qarorlar qabul qilish “Buxgalteriya hisobi” fanining metodikasini yanada takomillashtirib borishni taqozo etadi. Tahlil natijasida olingan muhim qarorlar bevosita xo‘jalikning boshqaruvi tizimini yaxshilash bo‘lsa, ikkinchidan ushbu ma’lumotlar tashqi foydalanuvchilarining xo‘jalik faoliyatiga bo‘lgan qiziqishiga hamda qo‘srimcha investitsiyaning kirib kelishiga zamin yaratadi. SHu jihatdan “Buxgalteriya hisobi” fanini o‘zlashtirish jarayonida talabalar bozor iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyatlari hamda qonuniyatlarini hisobga olgan holda bu fanning mohiyati va ahamiyatini har tomonlama mukammal o‘rganish zaruriyatini belgilab berdi. “Buxgalteriya hisobi” fanining maqsadi - talabalarga buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit bo‘yicha ilmiy-nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, shuningdek ushbu bilimlarni amaliyotga tatbiq etish asosida foydalanuvchilar uchun zaruriy ma’lumotlarni shakllantirish, boshqaruvi tizimi uchun zarur bo‘lgan qarorlarni qabul qilish, korxonaning iqtisodiy-moliyaviy holatini tahlil etish, amalgalashishiga oshirilayotgan iqtisodiy jarayonlarning nazoratini yuritish borasidagi ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Juhon talablariga javob beradigan, xalqaro tamoyillar va qoidalarga mos keladigan, O‘zbekistonda buxgalteriya hisobini rivojlanishini huquqiy asoslarini ta’minlovchi qonun zarur edi. Qonun buxgalteriya hisobini tashkil etish, buxgalteriya hujjatlari va registrlari, aktiv va majburiyatlarni inventarizatsiya qilish va baholashning asosiy prinsiplari va qoidalari, o‘z va qarzga olingan kapitalning hisobi, moliyaviy hisobotlar oldiga qo‘yilgan vazifalar, maqsad va talablarni belgilab berishini talab etadi. O‘zbekiston Respublikasi hududida amal qilayotgan qonuniy va me’yoriy hujjatlar barcha xo‘jalik yurituvchi subektlar uchun hisob siyosati me’yorlarini huquqiy ta’minlovchi asosiy hujjat bo‘lib hisoblanadi. Shu boisdan, ushbu hujjatlar va bozor munosabatlari talablaridan kelib chiqib, buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit ixtisosligi bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlash hamda ularni o‘qitishni talab qiladi. SHu jihatdan, «Buxgalteriya hisobi» fanining ushbu nashri iqtisodiy sohada ta’lim olayotgan talabalar, buxgalterlarning kasb malakasi va bilim darajasini oshirish muammolarini yechishga qaratilganlidir.

Asosiy qism

1-MODUL.BUXGALTERIYA HISOBI

1-mavzu. Buxgalteriya hisobi fanining predmeti va usullari

Xo`jalik hisobi tushunchasi, funktsiyalari va unga qo`yilgan talablar. Buxgalteriya hisobining tarkibiy qismi va ular o`rtasidagi tafovutlar. Buxgalteriya hisobining predmeti, vazifalari va uning turlari. Xo`jalik jarayonlari. Xo`jalik mablag`lari va ularning tashkil topish manbalari tasnifi. Buxgalteriya hisobining usullari. Buxgalteriya balansi to`g`risida tushuncha. Balansning tuzilishi va uning moddalari. Balansni o`qish tartibi. Xo`jalik operatsiyalari ta`sirida balansdagi o`zgarishlar.

2-mavzu. Pul mablag`lari va hisob-kitoblar hisobi.

Pul mablag`lari va hisob-kitoblarning mazmuni hamda ularni hisobga olishning vazifalari. Kassa operatsiyalarini hisobga olish. Hisob – kitob scheti bo`yicha operatsiyalarni hisobga olish. Valyuta scheti bo`yicha amalga oshirilgan operatsiyalarni hisobga olish. Hisobdor shaxslar bilan bo`ladigan hisob-kitoblar hisobi. Boshqa hisob-kitob operatsiyalarini hisobga olish. Turli debtorlik va kreditorlik qarzlarni hisobga olish. Bank kreditlari va qarzga olingan mablag`larni hisobga olish.

3-mavzu. Mehnat va unga haq to`lash hisobi

Mehnat va ish haqi bo`yicha xisob-kitoblarning mazmuni va ularni hisobga olishning vazifalari. Ishga qabul qilishda xujjatlarni rasmiylashtirish. Mehnatga haq to`lash tizimlari va shakllari. Ish haqi hisobi. Xodimlarni mukofotlash va moddiy yordam bo`yicha xisob-kitoblar hisobi. Ijtimoiy nafaqalar bo`yicha xisob-kitoblar hisobi. Ish haqidan ushlanmalar va majburiy ajratmalar hisobi.

4-mavzu. Materiallar hisobi

Materiallarni turkumlash, baholash va ularni hisobga olishning vazifalari. Materiallarning harakatini rasmiylashtirish va ularning sintetik hisobini tashkil etish. Olingan materiallar bo`yicha hisob-kitoblar hisobi. Materiallarning ombor xo`jaligining buxgalteriya hisobi va ularni inventarizatsiya qilish tartibi. Xo`jalik jihozlari va inventarlar hisobining hususiyatlari.

5-mavzu. Investitsiyalar hisobi

Moliyaviy investitsiyalarni mazmuni va hisobga olish vazifalari. Moliyaviy investitsiyalarni turkumlanishi va baxolanishi. Moliyaviy investitsiyalar hisobini tashkil qilish. Aktsiya va obligatsiyalarning bozor va nominal qiymatini hisobga olish. Aktsiya va obligatsiyalarni sotib olish hamda qayta sotish bilan bog`liq xarajatlar hisobi. Moliyaviy investitsiyalar bo`yicha moliyaviy natijalar hisobi.

6- mavzu. Asosiy vositalar hisobi

Asosiy vositalar hisobini tashkil qilishning vazifalari. Asosiy vositalarni turkumlanishi va baholash tartibi. Asosiy vositalarni kirim qilish hisobi. Asosiy

vositalarga amortizatsiya hisoblash usullari va ularni hisobga olish. Asosiy vositalarni ta`mirlashni moliyalashtirish va ularning hisobi. Asosiy vositalarni ijaraga olish va ijaraga berish hisobi. Asosiy vositalarni inventirizatsiya qilish tartibi va ularning natijalarini hisobda aks ettirish. Asosiy vositalarning turlicha chiqib ketishi hisobi. Lizing operatsiyalari hisobi.

7-mavzu. Nomoddiy aktivlar hisobi

Nomoddiy aktivlarni hisobga olish vazifalari. Nomoddiy aktivlarning turkumlanishi va baholanishi. Nomoddiy aktivlarni qabul qilishni hujjatlashtirish. Nomoddiy aktivlarning kirimi hisobi. Nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash usullari va ularning xisobi. Nomoddiy aktivlarni hisobdan chiqarish hisobi. Nomoddiy aktivlarning tarlicha chiqib ketishi hisobi..

2- MODUL.MOLIYAVIY HISOB

8-mavzu. Xarajatlari hisobi va kalkulyatsiya

Xarajatlar haqida tushuncha. Xarajatlarni turkumlash. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar bo`yicha tannarxga qo`shiladigan xarajatlarni umumlashtirish va ularni taqsimlash. Mahsulot tannarxini tarkibi va turlari. Jarayonli, bo`linmali, buyurtmali tannarx hisoblash usullari. To`liq tannarx va ishlab chiqarish tannarxini hisoblash. Bevosita xarajatlarni mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxiga qo`sish. Bilvosita xarajatlarni mahsulot tannarxi tarkibida hisobga olish. Xaqiqiy va normativ usullar bo`yicha xarajatlar hisobi va tannarx hisoblash. “Standart kost” va “Direkt kosting” usullari.

9- mavzu. Mahsulot, tovar (ish, xizmat) lar va ularning sotilishi hisobi

Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning baholanishi va ularni hisobga olish vazifalari. Mahsulotni yuklab jo`natish va sotish jarayonini hujjatlarda rasmiylashtirish. Ishlab chiqarilgan mahsulotning sintetik va ombordagi hisobi. Tayyor mahsulotlarni sotishdan olingan tushum hisobi. Xaridor va buyurtmachilardan olingan avanslar hisobi. Tovarlarni sotishdan olingan tushum hisobi. Ishlarni bajarish va xizmatlarni ko`rsatishdan tushum hisobi. Tovarlar eksporti bo`yicha hisob-kitoblar hisobi.

10- mavzu. Xususiy kapital hisobi

Xususiy kapitalning shakllanishi va ularning hisobini tashkil qilish. Qo`shilgan kapitalni hisobga olish. Zaxira kapitalini hisobga olish. Maqsadli tushumlar, subsidiya va grantlar hisobini yuritish.

11- mavzu. Soliqlar va boshqa majburiy to`lovlar hisobi

Budgetlarga to`lanadigan soliqlar va to`lovlar hisobining asosiy vazifalari. Soliq hisobini yuritishda sub`ektlarning hisob siyosatini to`g`ri belgilanishi. Umumdavlat va maxalliy soliqlarni buxgalteriya xisobida aks ettirish. Byudjetdan tashqari majburiy ajratmalar xisobi. Mikrofirma va kichik xo`jalik yurituvchi sub`ektlarda soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi. Mikrofirma va kichik xo`jalik yurituvchi sub`ektlarda soliqlar hisobi.

12- mavzu. Moliyaviy natijalar hisobi

Moliyaviy natijalarning shakllanishi va ularni hisobga olish. Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan yalpi foyda (zarar)larni hisobga olish. Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlarni hisobga olish. Moliyaviy faoliyatdan olinadigan foyda (zarar)ni hisobga olish. Favqulodda foyda va zararlarni hisobga olish. Foydaning ishlatalishi, yakuniy moliyaviy natija va taqsimlanmagan foydani (qoplanmagan zarar) hisobga olish.

13- mavzu. Moliyaviy hisobot

Moliyaviy hisobotning mazmuni va tarkibi. Moliyaviy hisobot tuzish va uni tashkil etish. Buxgalteriya balansi tuzilishi va uning tarkibi. Pul oqimi to`g`risidagi hisobotni tuzish va uni to`ldirish. Xususiy kapital to`g`risidagi hisobotni tuzish. Tushuntirish xatlari va ilovalar.

60410200 – Buxgalteriya hisobi yo‘nalishi bo‘yicha ikkinchi va undan keyingi ta’lim yo‘nalishiga ikkinchi va undan keyingi ta’limga kiruvchilarning bilim darajasini sinash maqsadida tuzilgan savollar.

1. Buxgalteriya hisobini tashkil etishning nazariy va uslubiy asoslari.
2. Pul mablag`lari hisobi.
3. Valyuta operatsiyalari hisobi.
4. Tovar moddiy zaxiralar hisobi.
5. Materiallarning ombor xo`jaligi hisobi.
6. Asosiy vositalar hisobi.
7. Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish hisobi.
8. Nomoddiy aktivlar turkumlanishi va baholanishi.
9. Nomoddiy aktivlarning harakatini hisobga olish.
10. Investitsiyalarni hisobga olish.
11. Xarajatlar hisobi va kal’kulyatsiya.
12. Asosiy va yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari hisobi.
13. Ustav kapitalini shakllantirish va ularni hisobga olish.
14. Moliyaviy natijalarni shakllantirish va ularni hisobga olish.
15. Boshqaruv hisobi fanining predmeti va vazifalari.
16. Boshqaruv hisobida byudjetlashtirish.
17. Bosh byudjet va uni tuzish tartibi.
18. Mahsulot tannarxini tarkibi va turlari.
19. Mahsulot tannarxini kal’kulyatsiya qilishning jarayonli usuli.
20. Mahsulot tannarxini kal’kulyatsiya qilishning oddiy usuli.
21. Mahsulot tannarxini kal’kulyatsiya qilishning buyurtmali usuli.
22. Mahsulot tannarxini kal’kulyatsiya qilishning normativ usuli.
23. Mahsulot tannarxini kal’kulyatsiya qilishning Standart Kost usuli.
24. Mahsulot tannarxini kal’kulyatsiya qilishning Direkt kosting usuli.
25. tannarx hisoblash usullari.
26. To`liq tannarx va ishlab chiqarish tannarxini hisoblash.
27. Transfert bahoni shakllantirish va segmentar hisobot.
28. Transfert bahosining turlari va shakllantirish tamoyillari.
29. Kelgusi davr xarajatlarini qoplash rezerv fondini tashkil qilish va foydalananis hisobi.
30. Moliyaviy natijalar hisobi

60410200 – Buxgalteriya hisobi yo‘nalishi bo‘yicha ikkinchi va undan keyingi ta’limga kiruvchi talabgorlar uchun mutaxassislik fanlari bo‘yicha davogarlar bilimini baholash MEZONLARI:

60410200 – Buxgalteriya hisobi bo‘yicha ikkinchi va undan keyingi ta’limga kirish sinovlari abiturientlar uchun ikki bosqichda: test va og’zaki tarzda o’tkaziladi.

Abiturientlarga 50 tadan test savollari beriladi. Har bir to’gri javobga 2 balldan beriladi, eng yuqori ball 100 ballni tashkil etadi. Test o’tkazish uchun 60 minut vaqt beriladi, test abiturient tomonidan mustaqil ravishda bajarilishi shart.

Test jarayonida abiturientlarning auditoriyadan chiqishi, bir – biri bilan gaplashishi, boshqa abiturientlarga o‘z test varaqalarini berishi, o‘zi bilan darsliklar, o‘quv – uslubiy qo‘llanmalar, lug‘atlar, ma’lumotnomalar va boshqa adabiyotlar normativ – huquqiy hujjatlar, konspektlar, elektron va qog‘oz shpargalkalar, kalkulyatorlar, aloqa vositalari (shu jumladan uyali aloqa vositasi), audio – foto va video – yozuv qurilmalari va h. k. larni olib kirishi va ulardan foydalanishi taqiqlanadi.

Test uchun ajratilgan vaqt tugaganidan so‘ng, abiturient o‘z test varaqasini auditoriya rahbariga topshirishga majburdir. Auditoriya rahbari test imtihonda qatnashgan talabalar ro‘yxati hamda auditoriyadan chetlashtirish to‘g‘risidagi dalolatnomalarni mas’ul kotibga topshiradi.

60410200 – Buxgalteriya hisobi yo‘nalishi bo‘yicha ikkinchi va undan keyingi ta’limga kiruvchi talabgorlar bilimini aniqlash maqsadida tuzilgan baholash mezonini Iqtisodiyot kafedrasining 2025-yil 30-iyundagi 12-sonli yig‘ilishida muhokama qilinib, ma’qullangan.

Asosiy adabiyotlar

1. Egamberdiyeva S.R. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. –T.: Fan va texnologiya, 2019. 289 b.
2. Karimov A., Muqumov Z, Tulayev M., Kurbanbayev J., Raxmonov Sh. Buxgalteriya hisobining axborot tizimlari. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisodmoliya, 2018. –194 b.
3. Karimov A., Kurbanbayev J., Jumanazarov S. Buxgalteriya hisobi. Darslik.– T.:Iqtisod-moliya, 2019. - 512 b.
4. Karimov A., Kurbanbayev J., Jumanazarov S., Xalilov Sh. Moliyaviy hisob va hisobot. O'quv qo'llanma. –T.:Iqtisod-moliya, 2018. - 400 b.
5. Kuljonov O., Ortiqov X., Yugay L., Tuxsanov X., M.Xayitboyev Moliyaviy hisob. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –246 b.
6. Norbekov D., Misirov K., Tashmanov G'. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –194 b.
7. Norbekov D., To'rayev A., Raxmonov Sh. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –350 b.
8. Norbekov D., Maxmudov A., Muxammedova D. Buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –236 b.
9. Pardayev A., Pardayev B. “Boshqaruv hisobi” T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2015 yil 251 b.
10. Xasanov B., G'aniyev Z., Muxammedova D. Boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –279 b.
11. An Introduction to Accounting Theory, 1st edition. 2016, UWS, Australia 12. Wan Madznah Wan Ibrahim Mohd Rizal Palil “Fundamentals of Business Accounting” 2nd edition Published by Oxford Fajar Sdn. Bhd. Selangor Darul Ehsan, Malaysia 2014.
13. Carl S. Warren, James M. Reeve, Jonathan E. Ducae “Financial and Managerial Accounting” 12th edition, South-Western, Cengage Learning, USA, 2014
- 1.O'zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobining milliy standartlari to'plami. –T.: “NORMA”, 2011.
2. Ortiqov X. Yugay L, Tuxsanov H, Xujabekov N. O'zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobining milliy standartlariga sharhlari to'plami. –T.: “NORMA”, 2010.
3. Jo'raev N. Abduvaxidov F. Sotivoldieva D. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. –T.: 2012.
4. Amaliy buxgalteriya. –T.: “NORMA”, 2011.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-sonli Farmoni.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. - 488 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik -

- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 104 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini bиргалик da barpo etamiz. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 56 b.
 5. Mirziyoyev Sh.M. Qонун ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent: “O‘zbekiston” NMI U, 2017.-48 b.
 6. Бахолдина И. В., Голышева Н. И. Бухгалтерский финансовый учет: Учебное пособие/ - М.: Форум, НИЦ ИНФРА-М, 2016.
 7. Мирошниченко Т.А. Бухгалтерский финансовый учет и отчетность (продвинутый уровень): учебник. Персиановский: изд-во ДонГАУ, 2015

Axborot manbaalari

1. www.gov.uz- O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali.
 2. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qонун hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
 3. www.mineconomy.uz - O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi sayti.
 4. www.mf.uz - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.
 5. www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti.
 6. www.soliq.uz - O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi sayti.
 7. www.cbu.uz - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti.
 8. www.webofscience.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi.
 9. www.sciencedirect.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi.
 10. www.worldbank.org-Jahon banki sayti.
 11. www.scopus.com- Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi.
 12. www.ebrd.org - Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki sayti.
- www.imf.org - Xalqaro valyutajamg‘armasi sayti.